

ҲАҚ ЭВАЗИГА ХИЗМАТ КҮРСАТИШ ШАРТНОМАСИ

№ 9372

2022 й. «4» 3

айнан

ш.

Ушбу шартнома бир тарафдан келгусида «БУЮРТМАЧИ» деб номланувчи: Туман Ҳалқ Таълими булими Раҳбари: Н. Сидикова низомига асосан фаолият олиб борувчи ва иккинчи томондан «ИШ БЕРУВЧИ» деб номланувчи Узбекистон туман Дезинфекция станцияси ва унинг бош врачи: А. Отакулов Узбекистон Республикаси конунчилиги ва амалдаги Уставига асосан фаолият курсатувчи куйидагилар хакида ушбу шартнома тузилди.

1. Шартноманинг мазмуни ва хажми

1.1. «Буюртмачи» дезинфекция, дезинсекция, ва дератизация ишларини олиб боришни «Иш бажарувчи»га тоширади. Иш бажарувчи тоширилган ишларни уз зиммасига олади **2022 й. учун**.

№	Ишларнинг турлари	Улчов бирлиги	Иш хажми (M2)		Нархи (сум)(1м ²)	Йиллик тулов суммаси
			Физик майдон	Оператив майдон		
1	Дезинфекция	M2	91000*3	273000	53,66	14649180
2	Дезинсекция	M2	70000*3	210000	53,66	11268600
3	Дератизация	M2	226800*3	680400	26,70	18166680
ЖАМИ:						44084460

Шартноманинг умумий баҳоси: **Кирк турт миллион саксон турт минг турт юз олтмиш сум**
(Ракамлар ёзувлар билан)

1.2. «Иш бажарувчи» Иморатни, бинони, хоналарни, ховли санитария курилмаларини худуднинг бинолар курилмаган кисемини ишлов бериш тартиби ва мухлатини белгилайди.

1.3. «Буюртмачи» хапоратлар ва кемирувчиларга карпи курапиш шартномасига барча курилма майдонларни умумий фойдаланаадиган асосий майдондан ташкарикушимча ер майдонларни факат техник холат хизмати курсатиш бюроси (БТИ) томондан берилган техник паспорт асосида белгилайди.

2. ШАРТНОМА КИЙМАТИ ВА ТУЛОВ ТАРТИБИ.

2.1 Шартноманинг умумий киймати **44084460** сумни ташкил этади.

2.2 Тулов хисобидан накд нул ёки нул утказиш йули билан, айрим холатларда эса икки томоннинг келишувига асосан эхтиёж моллар билан туловни амалга оширадилар.

2.3 Тулов олдиндан бажарилётган иш хажмининг 30% микдорида утказиб берилади.

3. ТАРАФЛАРНИНГ ХУКУК ВА МАЖБУРЯТЛАРИ

“Буюртмачи”.

3.1 Ишлов берилётган обектларни барча техник хафсизлиги чораларига амал килинишини таъминлаш (уланадиган Дез моддага нисбатан) «Иш бажарувчи» талабига асосан дезинфекция тадбирларини утказиш учун обектларни ёпиш жадвалини топшириш.

3.2 “Буюртмачи” ва “Иш бажарувчи” томонидан бажарилган ишларнинг сифатсизлиги аникланса 3 (уч) кун ичida “Иш бажарувчи”га рекламация билдириш.

3.3 Биноларга ишлов берини учун уз вактида ва сифатли тайёрлаш.

3.4 Хураклар куйиши учун зарур булган мосламаларни тайёрлаш.

3.5 Дератизация утказувчи шахслар учун ишлашга кулаги шароит яратиб бериш.

3.6 Барча хоналарга кириш имконини ишлов беришни таминалаш, уларни ёритиш электр хавфсизлигини таъминлаш. Ер тулани сувдан тозалаш ва куритиш бошка техник хавфсизликни ва меҳнатни муҳофаза килиш шароитини таъминлаш.

3.7 “Иш бажарувчи” профилактик дезинфекция ишларини олиб боришда Узбекистон Республикаси С С Вазирлиги томонидан рухсат этилган Дез моддаларни куллашни.

3.8 Рухсат этилган ва амалиётда кулланилаётган ташқиий ва методик курсатма ва йурикномаларга асосан ишлаш.

3.9 “Буюртмачи”га ишлаётган Дезмоддалар хакидаги эхтиёт чораларини тушинтириш

3.10 "Буюртмачи" объектга кемирувчи ва хашоратларнинг кириб келишининголдини олишлик максадида профилактик текширув ва ишлов беришни.

3.11 "Буюртмачи" томондан билдирилган рекламациядан сунг уч куп ичидаги "Иш бажарувчи" уз хисобидан ишларни кайта бажариб бериш.

4. Форс-Мажор холатлар

4.1 Томонлар уз иш вазифаларини бажариш жараёнида бирор бир тиббий ходиса руй берган тақдирда Узбекистон Республикасининг бирор фавкулотдаги холат масаласи чакирилган фармон ва низомлари эълон килинганда, корхонада бирор ички авариялар булган холатларда ва шуларни бартараф этишида сарфланган кунлар хисобига вазифани бажариш шу кунга узайтиришни эътиборга олинади.

4.2 Агар Форс-Мажор 60-кундан зиёд давом этган тақдирда томонлардан хар бири шартномада курсатилган мажбуриятларни бажаришни рад этиши мумкин. Бу холда томонлар бажарилган мажбуриятлар буйича узаро хисобкитоб килишлари керак.

4.3 Форс-Мажор холати натижасида бир томонда ушбу шартнома мажбуриятларини бажариш мумкин булмаса киска муддат ичидаги иккичи томонни форс-мажор холати пайдо булганилиги тугрисида хабардор килинади.

4.4 Форс-Мажор холатини тасдиқланиши учун томонлар урнатган тартибда ваколатга эга булган давлат идораларидан керакли хужжатларни тақдим этилади.

4.5 Форс-Мажор пайдо булган холатда хар бир томон курган заарлари учун факат узи жавобгар

5. Томонларнинг моддий жавобгарлиги

5.1 "Буюртмачи" «Иш юрутувчи» билан хар ойида бажарилган иш хажмига асосан тузилган Солиштирма далолатномага асосан толовни 10 кун муддат ичидаги амалга оширади, сунг кечикирилган хар бир кун учун 0,4% микдорида жарима (пеня) тулайди.

5.2 "Иш бажарувчи" «Буюртмачи» томондан пул утказиб берилган кундан бошлаб 10 кун ичидаги ишни бажармаса хар бир кечикирилган кун учун 0,4 % микдорида пеня тулайди.

5.3 Тарафлар пеня микдорини асосий карзнинг 50% дан ошмаган холда амалга оширадилар.

5.4 "Иш бажарувчи" мазкур шартномани умуман ёки тегиши даражада бажармаган холларда у келтирилган зарарни "Буюртмачига" батамом тўлапши шарт, лекин бу тўлов шартномада назарда тутилган хизматлар баҳосининг икки бараваридан ортиқ бўлиши мумкин эмас.

5.4 Тарафларнинг ушбу шартномада кузда тутилмаган бошқа моддий жавобгарлиги Узбекистон Республикаси Фуқоролик кодекси ива Узбекистон Республикаси Хужалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий – хукукий базаси тугрисидаги конун билан тартибга солинади.

6. Шартноманинг бошқа шартлари

6.1 Тарафлар ургасидаги низолар узаро хал килинади, агарда узаро хал этилмаса Фаргона Вилоят Иктисодий суди орқали хал этилади.

6.2 Шартнома бир йил муддатга тузилади, агар томонларнинг бирортаси шартнома тутатилган ёки узайтириш хакида 1 (бир) ой олдин хабар килмаса шартнома яна бир йил узайтирилган саналади.

6.3 Шартнома томонларнинг имзоланган кунидан бошлаб кучга киради.

6.4 Шартнома икки нусхада тузилиб бир нусхаси «Иш бажарувчи» да иккичи нусхаси эса «Буюртмачи» да сакланади.

6.5 Шартнома икки томонлама имзоланиб, газначилик бошкармаси (булимии)дан руйхатдан утказилгандан сунг конуний кучга киради.

6.6 Ушбу шартнома газначилик булимии томонидан руйхатдан утказилган кундан бошлаб юридик кучга кирибикки нусхада тузилиб бир хил кучга эга.

Шартнома 04.03.2022 йилдан 31.12.2022 йилгача амал килади.

Томонларнинг хукукий манзиллари ва реквизитлари:

Иш бажарувчи:

«Дезинфекция станцияси»
Яипан шаҳар Туркистон 117 уй
Универсал банк Кукон филиал
Х/р: 20210000400223321001

ИНН: 200188385

МФО: 00973

Рахбар:

Тел: 91 138 08 83



Буюртмачи:

Узбекистон туман Халқ Таълими булими

Яипан шаҳри Зиёкор кучаси 102

Бюджетдан маблаг олувчи стир_200189130

ОКОНХ_97600

Х/Р-100022860302307092100075071

Газначилик булинмаси номи: Узбекистон тумани

Молия Вазирлиги Газначилиги

Банк номи: Марказий банк Тошкент


Х/Р23402000300100001010



ИНН:201122919

МФО: 00014

Рахбар: Н.Сиддикова _____(имзо)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI

O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,

www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022 йил 4 mart

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1.Loyihaning turi : Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi.

3.Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi.

4.Loyiha yuzasidan ma'lumot:

O'zbekiston tumani Xalq ta'limi bo'limi (keyingi o'rinnlarda - bo'lim deb yuritiladi) tomonidan Markazga bo'lim va Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani xo'jalik hisobidagi dezinfeksiya stansiyasi o'rtasida jami qiymati 44.084.460 (qirq to'rt million sakson to'rt ming to'rt yuz oltmis) so'm dezinfeksiya xizmatlarini amalga oshirish to'g'risidagi shartnoma loyihasi huquqiy xulosa olish uchun taqdim qilingan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy, bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirdorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining subyektlari (taraflari) bo'ladi.

O'zbekiston Republikasi Fuqarolik kodeksning 41-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Fuqarolik kodeksning 44-moddasi birinchi qismiga muvofiq yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat

ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi www.stat.uz rasmiy sayti orqali olingan ma'lumotga ko'ra, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani xo'jalik hisobidagi dezinfeksiya stansiyasi 01.01.1960 yilda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini, yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiylari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagи shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak. Shartnoma loyihasida mazkur Qonun talablariga amal qilingan holda mazkur shartlar nazarda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxslarning o'zaro bitimlari oddiy yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taqdim etilgan shartnomasi oddiy yozma shaklda tuzilgan. Shartnomaga shartnoma tuzish vakolati bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi birinchi qismiga muvofiq, xo'jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'riliши kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

"Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 62-moddasi birinchi qismiga ko'ra, takliflarni taqqoslash natijalariga ko'ra xarid komissiyasi tanlash g'olibini aniqlaydi va tanlash o'tkazish natijalarini bayonnomada aks ettiradi.

Mazkur moddaning to'rtinchi qismida agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib

U.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: UJ5530676475
tushmagan bo'lsa, davlat buyurtmachisi va xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb
topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuzilishi belgilangan.

Taqdim etilgan hujjatlarni o'rgangan holda va yuqoridagilarga asosan:

XULOSA QILAMAN:

Bo'lim va Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani xo'jalik hisobidagi
dezinfeksiya stansiyasi o'rtasida jami qiymati 44.084.460 (qirq to'rt million sakson
to'rt ming to'rt yuz oltmis) so'm dezinfeksiya xizmatlarini amalga oshirish
to'g'risidagi shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi
“Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi
Qonunning 5, 10, 21-moddalari, Fuqarolik kodeksining 41, 44 va 108-moddalari va
“Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonun talablariga muvofiq deb hisoblanadi.

Markaz bosh yuriskonsul'ti



A.Turdialihev